
JAHON CHEMPIONATI SOVRINDORI MUNOSIB KUTIB OLINDI



Jahon chempionati sovrindori munosib kutib olindi

Toshkent shahrida o'tkazilgan karate bo'yicha jahon chempionatida munosib ishtirok etib, uchinchi o'rinni egallagan 17-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchisi Magzunbek Asalbekovni tuman hokimligi vakillari va Devayron mahalla fuqarolar yig'ini ahli munosib kutib olishdi. Tul chegara-nazorat o'tkazish punktidagi yosh sportchini kutib olish marosimida tuman hokimi o'rinbosari Ilhom Abdumajidov va Magzunbekning oila a'zolari ishtirok etdilar.

Mahallaga yetib kelgan jahon chempionati sovrindorini uning ustozlari va tengdoshlari samimiy tabriklashdi. Sportchining muvaffaqiyatga sazovor bo'lishida uning ustози Viktor Muqaddasovning hissasi cheksiz.

Mahalla ahli va tuman hokimi o'rinbosari tomonidan Viktor Muqaddasovga minnatdorchilik izhor etildi. Yosh sportchilarimizning bunday muvaffaqiyatlari bardavom bo'lishini tilab qolamiz va yana bir karra Magzunbekni ushbu g'oliblik bilan tabriklaymiz!

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati





[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-11-06 16:18:49

